



TECHNOLOGIZATION OF THE TARBIYA JARAONI IN MAKTAB READERS

Saidnazarova Gulshoda Farxadovna

Ogahiy ijod maktabi tarbiyachi-pedagog, Khiva, Uzbekiston

Babayazova Iroda Raximboy qizi

Ogahiy ijod maktabi tarbiyachi-pedagog, Khiva, Uzbekiston

Abstract

The article discusses the problems of educational technology, methods of achieving results by ensuring the achievement of the goal of the educational process through the development of the personality of the learner, and methods of organizing lessons using the most popular technologies in the organization of education. Innovative technologies allow for individualized education for children, taking into account the individual needs and capabilities of each child. Innovative technologies also contribute to the development of digital literacy skills and the preparation of primary school students for work in the modern information society.

Keywords: Educational technology, Forms of education, Educational functions, Forms of educational work, Modern pedagogical technologies.

Introduction

Zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarini puxta egallagan, o'z yurti, o'z xalqiga fidoyi, har tomonlama sog'lom avlodni tarbiyalash har bir tarbiya beruvchining eng muhim vazifasidir. Har bir pedagogdan yuksak bilim, ulkan mahorat, zamonaviy ilm-fanning yutuqlaridan xabardor bo'lish, xorijiy tillarni puxta egallash, kompyuter texnologiyalaridan, internetdan maqsadli foydalanish ko'nikmalariga hamda yuqori malakaga ega bo'lishni talab etmoqda. Uzluksiz tarbiya tizimining oldida turgan eng muhim va eng dolzarb vazifalardan biri - bu tarbiya jarayonida innavasion tarbiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ularni tarbiya jarayoniga tadbiq etish va jahon standartlari talablariga bilimli, mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish - ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasidir. Pedagogning samarali

faoliyat ko'rsatishga undovchi tarbiya tadbirlarning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, tarbiya texnologiyasi o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u tarbiyalanuvchilarning shaxsiy hamda tarbiyachi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg'unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta'minlanadi hamda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi. Hozirgi kunda tarbiya jarayonida interfaol metodlar (innovation pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, tarbiyaning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Tarbiyachi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan birga, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Tarbiya texnologiyasining markaziy muammosi - tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirish orqali tarbiya jarayonini maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan "pedagogik texnologiya" tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V. P. Bepalko pedagogik texnologiyani "amaliyotga tadbiriq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi" deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi.

Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:

- ✓ Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blis-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va b.
- ✓ Strategiyalar: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotasiya", "T-jadval", "Yumaloqlangan qor" va h.k.
- ✓ Grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va boshqalar.

Interfaol tarbiya jarayoni bevosita interfaol metodlari yordamida tashkil etiladi. Tarbiyaning interfaol metodlardan foydalanishda tarbiyalanuvchi intellektual, erkin fikrlashni rivojlantirish, o'z fikrini asoslab berishga intilishi, o'zgalar fikrini tinglay olishi, muammolar yechimini topishga harakat qilishi, ijodiy va axloqiy taraqqiyoti jarayonlariga samarali ta'sir etadi. Tarbiyachi tarbiya jarayonida tarbiya metodlaridan foydalanganda, avvalo, bu metoddan foydalanishning o'rni, uning samaradorligini bilishi muhimdir. Buning uchun har bir pedagog hayotiy tajribaga ega bo'lgan, yetarli bilimlar bilan qurollangan, tarbiyalanuvchiga nisbatan muammolarning yechimini oldindan hal eta oladigan va ularni ta'lim oluvchilarga yetkazish malakasiga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, innovasion texnologiya asosida o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar tarbiyalanuvchilarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.[1]

Pedagogika fanida tarbiyaviy ishlar shakllari haqida umumlashtirilgan konsepsiya yo'q. Birinchidan, tushunchaning o'zi noan'anaviy tarzda belgilangan, ikkinchidan, tarbiyaviy ish shakllarining ko'plab tasniflari mavjuddir.

Tarbiya shakllari - tarbiya jarayonini tashkil etish yo'llari, o'quvchilarning jamoaviy va individual faoliyatini tashkil etish yo'llaridir.

O'zbek tilining izohli lug'atida shakl - narsaning tashqi ko'rinishi, sirtqi qiyofasi, ifodasi deb ifodalangan.

II. Tarbiya Funksiyalari

Birinci funksiyasi tashkiliy hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlarning har qanday shakli tashkiliy vazifani hal etishni o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'qituvchi ham, o'quvchilar ham tashkilotchi sifatida harakat qilishlari mumkin. Ishning tashkil etilishi muayyan harakatlarning mantiqiyiligini, ishtirokchilarning o'zaro munosabatlarining aks ettiradi.

O'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan tarbiyaviy ishlarning turli shakllarini tashkil etishning umumlashgan usullari (algoritmari) mavjud bo'lib, ular an'anaviy shakllar hisoblanadi (suhbatlar, jamoaviy ijodiy tadbirlar, tanlovlar, dramaturgiyalar va boshqalar). Bu usullar tashkiliy faoliyatning bir qator bosqichlarini, bosqichlarni ketma-ketlikda amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Shaklning ikkinchi funksiyasi tartibga solish. U yoki bu shakldan foydalanishda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamda bolalar o'rtasidagi munosabatlarni

tartibga solish imkonini beradi. Tarbiyaviy ishlarning turli shakllari maktab o'quvchilari jamoasini birlashtirish jarayoniga turlicha ta'sir ko'rsatadi. O'zaro hamkorlik zaruriyati oldindan belgilab qo'yilgan shakllar tufayli ijtimoiy munosabatlar me'yorlari shakllanadi.

Uchinchi funksiya axborotli. Bu funktsiyani amalga oshirish o'quvchilarga ma'lum miqdordagi bilimlarning bir tomonlama yetkazish bilan birgalikda, mavjud bilimlarini yangilashni, ularning o'z tajribalariga tayanishni ham o'z ichiga olishni nazarda tutadi.

III. Tarbiyaviy ishlar shaklining xususiyatlari:

- 1) nomi,
- 2) tadbir davomiyligi,
- 3) dastlabki tayyorlash yoki ekspromt,
- 4) ishtirokchilar soni ,
- 5) faoliyatni kim tashkil qiladi,
- 6) o'qituvchi ta'sirining xarakteri,
- 7) birgalikdagi faoliyat natijasi.

Tarbiyaviy ish shakllarini tanlash masalasini odatda o'qituvchi tomonidan hal etiladi. Uni hal qilishda quyidagi qoidalarga amal qilish tavsiya etiladi:

1. Keyingi ish davri (bir yil, chorak) uchun belgilangan tarbiya vazifalarini hisobga olish; har bir ish shakli bu vazifalarni hal etishga hissa qo'shishi kerak.
2. Topshiriqlardan kelib chiqib, bolalarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq bo'lgan ishning mazmunini, asosiy faoliyatini aniqlang.
3. Vazifalar asosida ish mazmuni, faoliyatning asosiy turlarini aniqlash. Bu ishga bolalarni jalb maqsadga muvofiqdir:
 - a) o'quv jarayonini tashkil etish tamoyillari;
 - b) bolalarning imkoniyatlari, tayyorgarligi, qiziqishlari va ehtiyojlari;
 - v) moddiy baza;
 - d) tashqi sharoit (madaniy markazlar, sanoat muhiti);
 - e) o'qituvchilar, ota-onalarning imkoniyatlari.
4. Jamoa maqsad-muddaosiga asoslangan holda ish shakllarini izlashni tashkil etish, shu bilan birga, yo'llarini aniqlash:

a) bolalar tajribasini yangi g'oyalar, shakllar bilan boyitish, masalan, boshqalarning tajribasini, mavjud chop etilgan materiallarni o'rganish, aniq savollar berish va boshqalar.;

b) o'qituvchi tomonidan tayyorlangan shakllarning variantlarini tahlil etish, ularni ish ishtirokchilari orqali tasdiqlatish.

5. Izlanish va tanlash jarayonida tarbiyaviy ishlar mazmuni va shakllarining izchilligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.[2]

IV. Innovatsion texnologiyalar

Tarbiya faoliyatidagi asosiy innovatsion texnologiyalar bular interfaol doska va onlayn kurslardan foydalanish, virtual va kengaytirilgan reallik, tarbiya uchun mobil ilovalar, bulutli texnologiyalar kiradi.

Interfaol doska va onlayn kurslardan foydalanish: Interfaol doskalar qiziqarli va interfaol tarbiya imkoniyatlarini ta'minlaydi hamda o'qituvchilarga materialni tushuntirishda turli usullardan foydalanish imkonini beradi. Onlayn kurslar tarbiya olish imkoniyatini kengaytiradi va mos keladigan vaqtda mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatini beradi. Virtual va kengaytirilgan reallik: Bu texnologiyalar o'quvchilar virtual olamlarga sho'ng'ishlari yoki kengaytirilgan real dunyo ob'yektlari bilan o'zaro aloqada bo'lishlari mumkin bo'lgan immersiv o'quv muhitini yaratishga imkon beradi, bu esa ularning o'quv materialini tushunishini chuqurlashtiradi. O'rganish uchun mobil ilovalar: Mobil ilovalar o'quvchilarga istalgan joyda va istalgan vaqtda o'qish imkoniyatini beradi, bu esa o'quv jarayonini yanada moslashuvchan va qulayroq qiladi. Ushbu ilovalar turli xil o'quv materiallari, testlar, viktorinalar va boshqa o'rganish imkoniyatlarini ko'rsatadi [3].

Bulutli texnologiyalar: Bulutli yechimlar o'quvchilar va o'qituvchilarga oson ma'lumot almashish, o'quv materiallarini saqlash va hamkorlikda loyihalar ustida ishlash imkonini beradi. Bu tarbiya resurslaridan foydalanishni yaxshilash va tarbiya samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Interfaol o'qitish usullaridan foydalanish va boy multimedia kontentidan foydalanish o'quvchilarni yanada samaraliroq o'rganishga yordam beradi. Bilimlarni yangilash: Innovatsion texnologiyalar o'quv materialini tez va oson yangilash, tarbiya va fan sohasidagi zamonaviy tendentsiyalar va yangi kashfiyotlarni kuzatish imkonini beradi. Darslarning interfaolliigi va faolliigi: Interfaol doska, onlayn o'yinlar, vebinarlar va elektron ta'limning boshqa shakllari

kabi texnologiyalardan foydalanish o'quvchilar uchun o'rganishni yanada qiziqarli va jozibador qiladi, bu esa faol ishtirok etish va o'rganish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi[4]

V.Xulosa

Ushbu maqola Maktab o'quvchilarida Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish haqida bo'lib, maqolada Tarbiya texnologiyasining muammolari tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirish orqali tarbiya jarayonini maqsadiga erishishni ta'minlash orqali natijaga erishish usullari, ta'limni tashkil etishda eng ommaviy texnologiyalarni qo'llagan holda dars tashkil etish metodlariga ham to'xtalib o'tilgan. Zamonaviy tarbiya sharoitida onlayn tarbiyadan foydalanish o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ham ega. Shuningdek ushbu maqolada Tarbiya shaklining funksiyalariga va Tarbiyaviy ishlar shaklining xususiyatlarini alohida qismlarga bo'lib keng miqyosida to'xtalib o'tilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. M.X.Toxtaxodjayeva, S.Nishonova, J.Hasanboyev, M.Usmonboyeva-Pedagogika O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashriyoti, 2010.
2. Sh.N.Xazratqulova –"Tarbiya fanini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi". Inter Education & global study-2024-yil №9(1)
3. S.K.PALUANIYAZOVA –"Tarbiya jarayonini amalga oshirishda Innovatsion Texnologiyalardan foydalanish". Innovative Academy.
4. www.scribd.com